

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
Rektor D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**O‘ZBEKISTONDA O‘TISH DAVRI VA JAMIYAT TARAQQIYOTI
BOSQICHLARI FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	200000-San‘at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220000-gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	70220303-Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)

Fan/modul kodi O‘O‘DJTB2105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbekistonda o‘tish davri va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni Talabalarga O‘zbekistonda o‘tish davri va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari yuzaga kelish tarixi, milliy davlatchiligimiz uchun poydevor bo‘lgan isloxotlar va ulardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga doir ma`lumotlarni tushuntirish orqali, ularda moziyga hurmat, Vatan va xalqqa muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat, hozirgi mustaqil kunlarni qadrlash bilan bog`liq tushuncha va tuyg`ularni xosil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar tarixiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.				
	II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
	1-mavzu: O‘zbekistonda o‘tish davri va bozor iqtisodiyotiga o‘tish. O‘zbekistonda o‘tish davri va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari yuzaga kelishidagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy-madaniy omillar, bundagi asosiy tarixiy jarayonlar, bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lidan iborat.				
	2- mavzu: O‘zbekistonning milliy mustaqillik va keng ko‘lamli islohotlarining o‘tkazilishi. 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot O‘zbekiston hukumatining siyosiy yo‘lini to‘la qonunlashtirib berdi. 1991-yilning avgustida „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi qonun qabul qilindi. Bu O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.				

3-mavzu: Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish.

4-mavzu: O'zbekistonda ijtimoiy isloxotlar va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda. Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qararlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

5-mavzu: O'zbekistonda iqtisodiy isloxotlar va jamiyat taraqqiyoti.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri-mulkni davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi.

6- mavzu: O'zbekistonda o'tish davrida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

Jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida olib boriladigan nazorat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-moddasiga muvofiq fuqarolar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin. **mavzu: 7-mavzu. O'zbekistonda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.**

O'zbekistonda mustaqillik yillarida davlat hokimiyati tizimining gorizontal muvozanatini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi: ijro hokimiyati va sud hokimiyatining yuqori tarkibini shakllantirishda yangi vakolatlarga ega bo'lgan Oliy Majlisning roli sezilarli darajada oshdi. Oliy sud organlarini optimallashtirish va ular ko'rib chiqadigan masalalar turiga qarab ixtisoslashtirishga asoslangan hududiy sudlarning izchil tuzilmasini joriy etish orqali sud tizimining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Tubdan ma'muriy islohot o'tkazilib, davlat va xo'jalik boshqaruvi tuzilmalari modernizatsiya qilindi va yangilandi.

8- mavzu: Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis palatalarining norma ijodkorligi va parlament nazorati yo'nalishidagi faoliyati kuchaytiriladi va samaradorligi oshiriladi.

9- mavzu: O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish; fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish; davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish; fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash kabi islohotlar amalga oshirildi.

10- mavzu: O'zbekistonda mustaqillik yillarida siyosiy islohotlar.

Hukumat a'zolariga nomzodning sohani rivojlantirish bo'yicha yaqin muddatga va istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturi bilan deputatlar oldida chiqish qilish tartibi joriy etildi; Hukumat a'zolarining o'z harakat dasturi ijrosini amalga oshirishiga doir masalalar yuzasidan axboroti Oliy Majlis palatalari, ularning qo'mitalarida muntazam eshitib borilishi amaliyoti yo'lga qo'yildi; viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilandi.

11- mavzu: O'zbekistonda mustaqillik yillarida huquqiy islohotlar samarasi.

Normarkazlashtirish siyosati namunasi o'laroq, "hududlardagi muammoni, eng avvalo, o'sha hududda ishlaydigan va yashaydigan insonlar yaxshi hal qila oladi", degan fikrdan kelib chiqqan holda davlat apparatining institutsional tizimi qayta ko'rib chiqilib, uni optimallashtirish, samaradorligini oshirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish. Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish. Sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish.

12- mavzu: Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar.

"Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish. Aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish. Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash. Mahalla — tuman — viloyat — respublika" prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

13-mavzu: 2017-2021–yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Mazkur tuzilmalar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, shuningdek, joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish

mexanizmi va davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish, ularning faoliyatini baholash mezoniga aylandi. "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portalini ishga tushirildi. Fuqarolarga Oliy Majlis palatalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga Elektron jamoaviy murojaat berish imkoniyati yaratildi. Murojaatlar bilan ishlash tizimining qonunchilik asoslarini yana-da mustahkamlash maqsadida "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi dasturining qo'shimcha qulayliklarga ega yangi versiyasi ishlab chiqildi..

14-mavzu: 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmun mohiyati.

Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish. Davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko'rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o'rnatish, aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta'sir qiluvchi masalalar bo'yicha murojaatlar tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash. "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqparvar davlat" milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta'minlash.

15- mavzu: "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida.

Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash "O'zbekiston — 2030" strategiyasining asosiy go'yalari hisoblanadi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekistonda o'tish davri va bozor iqtisodiyotiga o'tish

2. O'zbekistonning milliy mustaqillik va keng ko'lamli islohotlarining o'tkazilishi
3. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.
4. O'zbekistonda ijtimoiy islohotlar va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari
5. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va jamiyat taraqqiyoti
6. O'zbekistonda o'tish davrida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish
7. O'zbekistonda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish
8. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish
9. O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.
10. O'zbekistonda mustaqillik yillarida siyosiy islohotlar
11. O'zbekistonda mustaqillik yillarida huquqiy islohotlar samarasi
12. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar
13. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi
14. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmun mohiyati
15. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida.

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda o'tish davri va bozor iqtisodiyotiga o'tish.
2. O'zbekistonning milliy mustaqillik va keng ko'lamli islohotlarining o'tkazilishi.
3. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.
4. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.

	5.Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. 6.Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish 7.Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish. 8.Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning 9.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. 10.Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish. 11.Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish. 12.Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash 13.Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish 14.Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish 15.Mustaqillik yillarida ijtimoiy sohani rivojlantirish. 16.Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish. 17.Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. 18.Mustaqillik yillarida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish. 19Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. 20.Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • - O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari yuzaga kelishidagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy-madaniy omillar, bundagi asosiy tarixiy jarayonlar haqida bilimga ega bo'lishi ; • - Vatanimiz hududida davlatchilik an'alarining mustaqillikka erishish va yangi davrda yuksalishi va inqirozi ob'ektiv sabablari va mazmun-mohiyatini tushunishi, bilishlari lozim; • - O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti bosqichlari tarixida muhim rol o'ynagan tarixiy shaxs, voqea va hodisalar yuzasidan munosabat bildiradi.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);

	• guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1.Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To‘ldirilgan ikkinchi nashri –Toshkent: O‘zbekiston, 2022 yil – B.416 2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 3.Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 4.Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024. Qo‘shimcha adabiyotlar 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent: Tasvir, 2020. 6.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. 7.Sh.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 8. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlar. Toshkent: O‘qituvchi, 2021. 9.Baratboyev B., O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: Ilm va Fan, 2023. 10.Mamadaliyev A. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. -Toshkent: Ilm Fan, 2023. 11. Erbo‘tayeva S.O‘.,Baratov I., Alibekov U., Bekturdiyev Sh. Sirdaryo Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida. http://fikir.uz Internet saytlari 1. www.tdpu.uz

	2. www.pedagog.uz 3. www.ziynet.uz 4. www.edu.uz
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: Temirova Mashhura Muhammadaminovna, Qo'qon DU, "Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: Yo.Tayronov – Nizomiy nomidagi TDPU "Jaxon tarixi" kafedrası mudiri, t.f.n. T.Nuridinov-Qo'qon DPI, "Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

